



UDK: 81.131

Dilrabo BAXRONOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor vb, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
E-mail: dbaxronova@uzswlu.uz

UzMU professori, filologiya fanlari doktori M.Qurbonova taqrizi ostida

LISON, KOGNITIV ONG VA OLAM MANZARASI

Аннотация

Zamonaviy ilm-fan inson ongining KOGNITIV va LISONIY bir-biriga o'zaro aloqador, bog'liqlik tamoyili asosidagi ikki turi mavjud, deb hisoblaydi. Bu ong turlariga mos keladigan olamning kognitiv manzarasi va olamning lisoniy manzarasi variantlari ham bir-biriga ta'sir qiluvchi mustahkam aloqaga ega. Kognitiv ong olamning turli manzaralarini kognitiv munosabatda o'z ichiga olganidek, lingvistik ong ham obyektiv voqelikni lingvistik assimilyatsiya qilishda har xil yondashuvlarni nazarda tutadi, real olam faktlarini turlicha yoritish imkonini beradi, ya'ni olam lisoniy manzarasining turfa subkategoriyalarini birlashtiradi: ilmiy, diniy, sodda. Olam manzarasining variantlari kognitiv ong dunyosining turli manzarasiga xos bo'lgan voqelik obyektlari haqidagi bilimlar va g'oyalar tizimining verballashgan korrelyatsiyasini anglatadi: ilmiy, diniy, sodda.

Kalit so'zlar: Lison, nutq, kognitiv ong, olam manzarasi, kategoriya

ЯЗЫК, КОГНИТИВНОЕ СОЗНАНИЕ И КАРТИНА МИРА

Аннотация

Современная наука считает, что существует два типа человеческого сознания, КОГНИТИВНОЕ и ЯЗЫКОВОЕ, которые взаимосвязаны и основаны на принципе зависимости. Варианты когнитивной картины мира и языковой картины мира, соответствующие этим типам сознания, также имеют сильную и взаимовлияющую связь. Подобно тому как когнитивное сознание включает в когнитивную установку разные представления о мире, языковое сознание также предполагает разные подходы к языковому освоению объективной действительности, допускает различное освещение фактов реального мира, т.е. различные подкатегории картины мира: научная, религиозная, простая. Варианты картины мира представляют собой словесное соотношение системы знаний и представлений об объектах действительности, характерных для разных картин мира когнитивного сознания: научного, религиозного, простого.

Ключевые слова: Язык, речь, познавательное сознание, картина мира, категория.

LANGUAGE, COGNITIVE CONSCIOUSNESS AND THE WORLD VIEW

Annotation

Modern science believes that there are two types of human consciousness, COGNITIVE and LINGUISTIC, which are interconnected and based on the principle of dependence. Variants of the cognitive worldview and linguistic worldview corresponding to these types of consciousness also have a strong and mutually influencing relationship. Just as cognitive consciousness includes different (scientific, professional and simple) ideas about the world in the cognitive attitude, linguistic consciousness implies different approaches to the linguistic mastery of objective reality, allows different coverage of the facts of the real world, i.e. various subcategories of the language picture of the world: scientific, professional, simple. Variants of the linguistic picture of the world are a verbal correlation of the system of knowledge and ideas about the objects of reality, characteristic of different pictures of the world of cognitive consciousness: scientific, religious, simple.

Key words: Language, speech, cognitive consciousness, picture of the world, category.

Kirish. Antropotsentrik paradigma doirasidagi zamonaviy tadqiqotlarda ong va tafakkur tushunchalari o'rtasida keskin farqlanuvchi fikrlar uchramaydi, ba'zilarida takrorga yo'l qo'ymaslik maqsadida sinonim sifatida qo'llansa, ayrim tadqiqotlarda alohida ta'riflar kuzatiladi. Ong tushunchasi atrofida milliy ong, ijtimoiy ong, estetik ong, individual ong kabi istilohlar uchrasa, inson zehniyati faoliyatining yuksak shakli hisoblangan tafakkur haqida so'z ketganda milliy tafakkur, til va tafakkur, bilish quroli, idrok etish kabi formulalar ko'zga tashlanadi. Ong – miya xossasi bo'lsa, tafakkur ongga bog'liq miya faoliyati. Ongni shuur, tafakkurni idrok deb ham tushunish mumkin. I.Sternin ong termini prinsipial jihatdan hodisaning statik, tafakkur esa dinamik tomonini ifodalaydi, deb tushuntiradi. Uning ta'kidicha, lisoniy ong til (nutq) faoliyati: nutqni hosil qilish, nutqni idrok etish va tilni ongda saqlash kabi mexanizmlarni ta'minlovchi ongning bir qismidir [11]. Lisoniy ong faqat insonga ravo ko'rildi. K.Ajev ta'kidlaganidek, odamzot tabiatini tushinishda uni rivojlanishidagi turli holatlari baholanadi [1], demak, Homo Loquensni qandaydir ideal

gapuruvchi sifatida, uning muayyan madaniyatga mansubligidan tashqarida ko'rib chiqish qiyin, zero, muloqot subyekti – odam doimo til va madaniyat subyekti ham hisoblanadi.

Olam lisoniy manzarasining variantlarini farqlash lingvokognitiv kategoriyalashning har xil turlariga asoslanadi. Shu bilan birga, olamning lisoniy manzarasi o'z variantlarida leksik kategoriyalarning tarkibiy va semantik tashkil etilishidagi sezilarli farqlarni tan oladi. Bu farqlar, ayniqsa, olamning ilmiy manzarasidagi variantlarda (falsafiy, psixologik, fizik, biologik, tibbiy va hk), olamning professional manzarasi variantlarida (olamning yuridik, savdo-iqtisodiy, sanoat, leksikografik va hk) va olamning sodda manzarasini taqqoslaganda yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Gap olam manzarasi haqida ketar ekan, bunga yangi paydo bo'lgan, deb qarash noo'rin. Tilshunoslikning ko'pgina qo'lga kiritgan yutuqlariga antik davr (metafora masalasi) va o'rta asrlardayoq (qiyosiy yoki chog'ishtirma tilshunoslik) tamal toshi qo'yilgan.

Aristotel, Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar ilmiy-ijodiy faoliyati bunga misol.

O'tgan asr oxirida tilshunoslikning konseptual va metalisoniy apparatiga olam manzarasi termini kirib keldi. L.Vaysgerberning "Ona tili va ruhning shakllanishi" asarida olam manzarasi termini ishlatilib, olim o'z tadqiqotlarida olamning lisoniy manzarasiga diniy va badiiyatga xos tushunchalarni singdirish g'oyasini keltirgan, u ham o'z navbatida E.Kassirer ishlaridan ilhomlangan. Shuningdek, L.Vaysgerber olamning lisoniy manzarasi kelajakda ilmiy manzara bilan taqqoslanishi ehtimoli haqida mulohaza yuritgan. O.Radchenkoning keltirishicha, E. Kassirer madaniyatning qaysi sohasi bo'lmasin – din, ilm-fan, san'at va h.k. – ularning shakllanishiga tilning ta'sir kuchi, hamda olam lisoniy manzarasining ongga ta'siri to'g'risida fikr bildiradi. Uningcha, har qanday nazariy bilimlarning boshlang'ich nuqtasi allaqachon til tomonidan shakllangan olamdirlar: subyekt tabiatshunos olim bo'ladimi, tarixchi va hattoki, faylasuf bo'ladimi eng avvalo obyektlar haqidagi bilimlarni unga til taqdim etadi [1].

N.Mahmudovning ta'kidicha, antropotsentriklikni asosiy g'oyasi sifatida e'tirof etgan bugungi tilshunoslikda "olam manzarasi", ayniqsa, "olamning lisoniy manzarasi" tushunchalari markaziy o'rinni egalladi. Hozirgi tilshunoslikda ayrim tadqiqotchilar tomonidan olam manzarasi terminiga "borliq haqida ijtimoiy (shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami" tarzida ta'rif beriladi va olamning ikki, ya'ni bevosita hamda bilvosita manzaralarini farqlash prinsipial ahamiyatga molikligi ta'kidlanadi (Popova, Sternin terminlari) [9]. Bizningcha, olam manzarasi subyektning atrof-olam, real yoki xayoliy voqelikka oid bilim va fikr-mulohazalari majmuasidir. Ilmiy tasnif va talqinlar negizida mujassam bo'lgan dunyo-borliq-olam to'g'risidagi dastlabki bilimlar aynan tilda turg'un shakllar ko'rinishida saqlanib qolgan.

Tahlil va natijalar. Olamning yaxlit manzarasi falsafiy-ilmiy nazariyadan tashqari ilm-fanning barcha bilish shakllarining majmui sifatida gavdalanadi. Hozirgi tilshunoslikdagi olam manzarasini o'rganish borasidagi ilk tadqiqotlar V.fon Humboldt, E.Sepir, B.Uorf, A.Potebnya ishlarida asos solingan deb hisoblanadi [6], aslida esa olam manzarasi konsepsiyasini shakllantirish uchun dastlabki shart-sharoitlar antik va o'rta asrlardagi til nazariyalarida ham mavjud edi. Olam manzarasi haqidagi ilmiy tasavvur qadim zamonlardayoq olimlar asarlarida u yoki bu ko'rinishda o'z tasvirini topa boshlagan, chunki uning maqomi muammosi til, tafakkur va voqelikning o'zaro ta'siri masalalari bilan bog'liq rivojlangan. Bu masalalar odamzotni doimo fikrlashga undagan.

Keyingi davr tilshunosligida V. fon Humboldt ilmiy tadqiqotlarida tilni inson va dunyo o'rtasidagi oraliq bo'g'in, tilni olamni ko'rish vositasi sifatida o'rgandi, o'zidan keyingi A.Potebnya, E.Sepir, B.Uorf kabi qator olimlarning ilmiy ishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Qisqa aytganda, ilmiy izlanishlar, ayniqsa, tilning oraliq dunyo sifatidagi talqinlarida yosh humboldtchilar konsepsiyasi diqqatga sazovor. Shuningdek, V. fon Humboldt nazariyasiga yaqin g'oyalar G.Gerder, Ya.Grimm, F.Shlegel, F.Buslayev, F.Fortunatov kabi olimlar tomonidan ham bildirilgan edi [2].

Z.Boynazarov olam manzaralari turlari va ularning orasida bolalar dunyosi lisoniy manzarasini o'rganib, olamning oddiy (oddiy) lisoniy manzarasi; olamning ilmiy manzarasi; olamning bevosita manzarasi; olamning bilvosita manzarasi kabi OLM (olamning lisoniy manzarasi) turlari ichida bolalar dunyosining lisoniy manzarasi mavjud ekanligi va har bir bolaning qalbida yarim mifologik, yarim mistik va xayoliy bir dunyo borligi, bu dunyo ichidagi dunyoning lisoniy ifodasi esa bolalarga xos tushuncha va tasavvurlar

bilan ifoda etilishini qayd etadi [4]. Bizning fikrimizcha, olamning oddiy (oddiy) manzarasini sodda manzara deb atash maqsadga muvofiq, bunda hayotdan ilk olgan bilimlar va birinchi marta to'qnashayotgan voqelik haqidagi yuzaki tushunchalar nazarda tutiladi, ya'ni avval bolada olamning sodda manzarasi (yig'lasa unga e'tibor qaratilishi, olovni ushlasa kuyishi mumkinligi), keyinchalik esa lisoniy va h.k. manzaralar shakllanib boradi.

Z.Boynazarov M.Petrovaning fikriga tayanib, bola olamining lisoniy manzarasidan faol joy olgan konseptlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: 1) ijtimoiy-madaniy obrazlar (oila a'zolari, tengdoshlari, bola uchun obro'-etiborli bo'lgan shaxslar (tarbiyachi, sinf rahbari, direktor, doktor, miltisioner...); 2) bolalar dunyosi lisoniy manzarasida uchraydigan mavhum tushunchalar (Xudo, farishta, jin, ajina); 3) folklor va kattalardan eshutilgan hikoyalardagi qahramonlar (Aldarko'sa, uchar gilam, Yetti og'ayni, bo'ri, tulki, ajdar, Semurg', uchar tarelka, yulduz, oy, osmon jismlari). Bu fikrlardan ham ko'rinib turibdiki, bolada/insonda paydo bo'lgan sodda manzara olamning lisoniy manzarasiga aylanadi va uning negizida boshqa manzaralar hayotiy tajriba natijasida shakllanib/rivojlanib boradi, bizning ilk bilimlarimizda qorishiq holatda bo'lgan olam manzarasi vaqt o'tishi bilan kategoriyalarga ajraladi va har biri mustaqil olam manzarasiga aylanadi.

Tadqiqotlarni tahlil qilish jarayonida olam manzarasini quyidagi kategoriyalarga ajratdik: 1) Olamning sodda (oddiy) manzarasi, 2) Olamning lisoniy manzarasi, 3) Olamning folklor manzarasi, 4) Olamning mifologik manzarasi, 5) Olamning konseptual manzarasi, 6) Olamning ilmiy manzarasi, 7) Olamning falsafiy manzarasi, 8) Olamning diniy manzarasi, 9) Olamning biologik manzarasi, 10) Olamning siyosiy manzarasi, 11) Olamning milliy-madaniy manzarasi, 12) Olamning individual-mualliflik manzarasi, 13) Olamning gender manzarasi, 14) Olamning badiiy manzarasi va h.k.

Bu kategoriyalar o'z o'rnida bir qancha subkategoriyalarga bo'linishi mumkin. Masalan, olamning siyosiy manzarasi – olamning harbiy-siyosiy manzarasi, olamning geosiyosiy manzarasi; olamning ilmiy manzarasi – olamning fizik-mexanik manzarasi; olamning biologik manzarasi – olamning zoomorf manzarasi, olamning fitomorf manzarasi kabi.

Xulosa va takliflar. Olam manzarasi haqida so'z ketganda, dunyo har xil bo'limlardan tashkil topgan ekan, deb tushunmaslik kerak. Masalan, olamning mifologik manzarasi dunyo manzarasini bo'lib tashlamaydi, unda tabiat, inson, ilohiy kuchlar yaxlit birlikni tashkil etadi. Olam manzarasini yaxlit bir so'zana deb tasavvur qilsak, uni tashkil etuvchi turli manzaralar ushbu yaxlitlikni ta'minlovchi naqshlardir. Bu naqshlarga ma'no-mazmun beruvchi esa inson hisoblanadi.

Til – olamning birlamchi konseptuallashuvi va inson tajribasi ratsionallashuvining universal shakli, borliq haqidagi tafakkurda shakllangan muayyan bilimlarni ifodalash va ajdodlardan avlodlarga yetkazish vositasi, inson hayotidagi ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega voqealar haqidagi tarixiy xotira. Darhaqiqat, har bir xalqning tilini olam haqidagi barcha bilimlarni mustahkamlovchi xalq ensiklopediyasi deb atash mumkin. Lisoniy ong – inson nutqi faoliyati mexanizmlarini "boshqaruvchi" kognitiv ongning tarkibiy qismi hisoblanadi, u operativ nutq faoliyatini ta'minlaydigan kognitiv ong turlaridan biridir. Lisoniy ong insonda tilni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi va umri davomida takomillashib boradi, chunki vaqt o'tishi davomida tilning qoida va me'yorlari, yangi so'zlar, ma'no-mazmun-mohiyat haqidagi bilimlar jamlanadi, o'z tilidan tashqari o'zga tillarni egallash o'zlashtirilgan bilimni boyitadi, turli sohalarda muloqot qobiliyatini o'stiradi.

ADABIYOTLAR

1. Ajej K. Chelovek govoryashiy. Vklad lingvistiki v gumanitarnie nauki. – Moskva: Yeditorial URSS, 2003. – C 12.
2. Baxronova D.K. O'zbek va ispan tillarida olam manzarasining lingvokognitiv kategoriyalanishi// Filol. f. d. (DSc) dis. avtoreferat.// <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2022/05/O%CA%BBzbek-va-ispantillarida-olam-manzarasining-lingvokognitiv-kategoriyalanishi.pdf>.
3. Baxronova D.K. Olam manzaralarining kategorial xususiyatlariga doir// Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta'lim. – 2021. – №. 1 (78). – B. 56-63.
4. Baynazarov Z. M. Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-t-turk» asarida ifodalangan olamning lisoniy manzarasi. Fil. f. bo'yicha falsafa d. (PhD) dis. avtoref. – Samarqand, 2020. – B.16.
5. Cassirer E. Die Sprache und der Aufbau der Gegenstandswelt// Bericht über den 12. 1932.
6. Gumboldt V. fon. O razlichii stroyeniya chelovecheskix yazikov i yego vliyaniya na duxovnoye razvitiye chelovechestva/ "Izbrannie trudi po yazikoznaniyu". – Moskva, 1984. – S. 37-297.
7. Gumboldt V. fon. Yazik i filosofiya kulturi. – Moskva: Progress, 1985. – 452 s.
8. Kassirer E. Poznaniye i deystvitelnost: Ponyatiye o substansii i ponyatiye o funktsii / Per. s nem. B. Stolpnera, P. Yushkevicha. – Sankt Peterburg: Aleteyya, 1996. – 400 s.
9. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2017. – B.138.
10. Petrova M. V. Detskaya yazikovaya kartina mira (na materiale detskogo nemetskogo folklor): Avtoreferat diss. na soisk. uchen. stepeni kand.a filol. nauk. – Moskva, 2009. – S. 6-7.
11. Popova Z.D., Sternin I.A. Yazik i soznaniye: teoreticheskiye razgranicheniya i ponyatiyniy apparat. // Yazik i natsionalnoye soznaniye. Voprosi teorii i metodologii. Voronej: Izd-vo Voronej. gos. un-ta, 2002. S. 9-50.
12. Radchenko O. A. Yazik kak mirosozidaniye. Lingvofilosofskaya konsepsiya neogumboldtianstva. – Moskva, 1997. – 310 s.
13. Vaysgerber L. Rodnoy yazik i formirovaniye duxa. – Moskva, 1993. – 232 s.